

ORKESTR VA ORKESTR DIRIJYORLIGI FANINING KREATIV YONDASHUV ASOSIDA O‘RGATISH USLUBIYOTI XAMDA O‘ZIGA XOS TA'LIM VA TARBIYAVIY JIHATLARI

A.SH. Kodirov

Andijon viloyati T. Sodikov nomli 7-sonli musikaga ixtisoslashtirilgan maktab internati xalq cholg‘ulari bo‘limi orkestr fani o‘qituvchisi .

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada orkestr va orkestr dirijyorligi fanini o‘qitishda kreativ yondashuv asosida ta’lim berish usullari, uning pedagogik ahamiyati hamda ta’lim-tarbiyaviy jihatlari yoritib berilgan. Orkestr jamoasini boshqarish, musiqiy asarlarni badiiy talqin qilish, ijrochilar o‘rtasida uyg‘unlikni ta’minlash jarayonida dirijyorning o‘rni muhim ekanligi tahlil qilinadi. Shuningdek, orkestr mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish, ijrochilarning musiqiy tafakkurini rivojlantirish hamda jamoaviy ijro madaniyatini shakllantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Mazkur maqolada orkestr dirijyorligi fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ularning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

KALIT SO‘ZLAR: orkestr, dirijyorlik san’ati, kreativ yondashuv, musiqiy ta’lim, orkestr ijrochiligi, jamoaviy ijro, pedagogik mahorat, musiqiy tafakkur, badiiy talqin.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются методы обучения предмету оркестра и дирижирования на основе креативного подхода, а также его образовательные и воспитательные аспекты. Анализируется роль дирижёра в управлении оркестром, художественная интерпретация музыкальных произведений и обеспечение гармонии между исполнителями. Кроме того, рассматриваются педагогические особенности эффективной организации оркестровых занятий, развитие музыкального мышления исполнителей и формирование культуры коллективного исполнения.

Ключевые слова: оркестр, дирижирование, креативный подход, музыкальное образование, оркестровое исполнительство, коллективное исполнение, педагогическое мастерство.

ABSTRACT: This article discusses the methods of teaching orchestra and conducting based on a creative approach, as well as their educational and pedagogical aspects. The role of the conductor in managing the orchestra, the artistic interpretation of musical works, and maintaining harmony among performers are analyzed. The article also considers pedagogical aspects of organizing effective orchestra rehearsals,

developing performers' musical thinking, and forming a culture of collective performance.

Keywords: orchestra, conducting art, creative approach, music education, orchestral performance, collective performance, pedagogical skills.

KIRISH

Mazkur maqolada orkestr dirijyorligining o'ziga xos qirralari bilan bog'lik masalalar ko'rib chiqiladi va ularning tasnifi keltiriladi.

Mustaqil davlatimizning ma'naviy – ma'rifiy islohotlarida san'at ahlining faol ishtiroki yoshlarni barkamol avlod qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada badiiy jamoalarning o'rni beqiyosdir.

Mamlakatimizda ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash umumdavlat darajasiga ko'tarilgan. Mustaqil davlatimizning ma'naviy – ma'rifiy islohotlarida san'at ahlining faol ishtiroki yoshlarni barkamol avlod qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada badiiy jamoalarning o'rni beqiyosdir. Rivojlanishlar haqida gap ketganda albatta gap avvalam bor yoshlar ta'lim-tarbiyasiga borib taqaladi. Bu borada esa orkestr dirijyorligining o'ziga xos ta'lim va tarbiyaviy ko'plab jihatlari mavjud. Bugungi kunda badiiy jamoalar (orkestr, ansambl)ni boshqarish – o'rganilayotgan va o'rganilgan musiqa asarlarini sozandalar ijrosiga moslash, ijrochilikning barcha elementlarini egallashga ko'maklashish, tovush sifatini yaxshilash, badiiy ijro va talqinga e'tibor berish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Dirijyor - rahbarning ko'rsatmalarini tushunish asarni o'rganish jarayonini engillashtiradi, orkestr, ansambl ijrosini yaxshilaydi, bir maqsad sari intilishga etaklaydi.

Musiqa insonning ongi, tuyg'ulari va e'tiqodini shakllantirishda muhim va ta'sirli kuchga ega. Zamonaviy insonning yakuniy maksadi - ong va qalb uyg'unligidir. Bu maqsadga erishishda musiqiy yo'nalishdagi o'quvchilarning musiqiy tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish asosiy vazifa deb qaralishi kerak. Zamonaviy pedagogika bolalarni estetik tarbiyalash va nafosat olamiga olib kirishga xizmat qiladi. Bu borada o'quvchi-yoshlarni va qiziqishi bo'lmaganlarni ham qiziqtirish uchun o'quv jarayoniga ijodiy yondoshish talab etiladi. Bu maqsadga erishmoq uchun musiqa maktablarida o'quvchilar bilan yakka va jamoaviy mashg'ulot shakli mavjud. Yakka darslarda o'qituvchi bitta o'quvchiga e'tiborni berib, uning shaxsiy hislatlarini chuqurroq o'rganish, qobiliyati va professional ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ish olib borish imkoniyatga ega. Jamoaviy darslarda o'quvchilarni hamkorlikda ishlash, o'z shaxsiy faoliyatini umumiy maqsad yo'lga qaratish, do'stlik, hamkorlik, ijodiy muxit yaratish kabilar shakllantiriladi.

ASOSIY QISM

ORKYESTR FANIGA KRYEATIV YONDASHUV ASOSIDA O'RGATISH USLUBIYOTI

Bilamiz, orkestr - bu jamoaviy ijro shakli bo‘lib, unda sozandalar ijro vositalari yordamida asarning badiiy mazmunini yoritib beradi. Xalq cholg‘ulari orkestrida ijro etish nafaqat birgalikda chalishni, balki asarni birgalikda his qilish, ijod qilish, “nafas olish”ni o‘rgatadi. Uni bir nechta musiqiy cholg‘ularda ijro etadigan kishilar emas, balki bitta qalbli va hamnafas musiqachilarning buyuk hamkorligi desa bo‘ladi. Orkestr san'ati o‘quvchilarning musiqani to‘g‘ri eshitib tushungandagina ularning estetik tarbiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ijrochilarning hamfikrligi orkestrda bir kunda emas, balki yillar davomida tarbiyalanadi. Orkestr bu – katta, ko‘p ovozli cholg‘u, dirijyor esa uni chaladigan ijrochi - musikachi. Dirijyor qo‘lini silkitib havoda tasvirni aks ettiradi, ijrochi-musiqachilar esa ularni tovushlar bilan jonlantiradi.

Orkestr mashg‘ulotlariga yangi jalb etilgan o‘quvchilar bir oz kiyinchiliklarga duch keladilar, chunki butun bir jamoaning a‘zosi bo‘lish oson emas. Ammo shu bilan birga orkestrda ijro etish qimmatli professional hislatlarni, avvalo usul tuyg‘usini, kerakli sur‘atni his qilish, melodik, garmonik, polifonik va tembr eshitish qobiliyatini tarbiyalaydi. Uzoq vaqt davomida birgalikda muloqotda bo‘lib, ijrochilar tajriba, bilim bilan o‘rtoqlashadilar, natijada ijrochilik mahorati past bo‘lgan o‘quvchilar kuchli musiqachilar darajasiga etish uchun harakat qiladilar.

Xalq cholg‘ulari orkestr rahbarining ishi mutaxassislik o‘qituvchilari bilan hamjihatlikda tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Orkestrda o‘quvchilarga qo‘yiladigan talabning bir xilda bo‘lishi muhim. Orkestr rahbari va mutaxassislik o‘qituvchisi asosan, tovush chiqarish, shtrixlar, artikulyasiya, nafas olishni to‘g‘ri shakllantirish, metro-ritm, dinamika ustida ishlash kabilarni olib borishlari zarur. Yangi o‘quvchilarni orkestr jamoasiga qo‘rqmasdan kirishlari uchun avvalambor, uni tomoshabin sifatida repetisiyalar va konsertlarga taklif qilish tajribasi yaxshi samara beradi. Mutaxassislik darslarida bolalar bilan orkestr partiyalarini o‘rganib, ularni orkestr safiga ijrochi sifatida dastlab bitta, keyinchalik bir nechta yodlangan asarlari bilan konsertlarga chiqarish bolalarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Bolalar xalq cholg‘ulari orkestri rahbari partituraning qunt bilan tahlil qilib o‘rganishi, bolalar uchun ijroda murakkab bo‘lgan bo‘laklarni aniqlashi, guruhlar bilan ishlash qismlarini belgilab olishi, cholg‘ulashtirish, ularning orkestr guruhlarida cholg‘ularida jaranglash darajasini o‘rganib, kerak bo‘lsa ularni orkestr mashg‘ulotlarigacha to‘g‘rilab olishi orkestr mashg‘ulotlarining unumli bo‘lishini ta‘minlab beradi. Orkestr repetisiyasi cholg‘ularning yaxshilab sozlanishi bilan boshlanadi. Maktab orkestrini sozlash rahbar tomonidan amalga oshiriladi. Orkestrning yaxshi sozlanishi asar ijrosi sifatining yuqori bshlishini ta‘minlaydi. Cholg‘ularni sozlash va barmok mashqlariga repetisiya yoki konsertdan oldin 20-25 minut vaqt beriladi.

Dirijyorning orkestr bilan muloqot vositasi dirijyorlik ishorasi hisoblanadi. Rahbarning asosiy vazifasi yosh musiqachilarni o‘zining tilida tushuntirishdir.

Mashg'ulotlarda rahbar ijodiy muhit yaratishi lozim: o'quvchilarni qiziqtirishi, ularni ishtiyoq bilan ishlash uchun repetisiyani jonli va qiziqarli o'tkazishi kerak. Bunda musiqachilarga xayrixona munosabatda bo'lish muhim rol o'ynaydi.

Konsertlar juda ko'p va turli dunyoqarashga ega bo'lgan kishilar orasida bo'lib o'tadi. Shuni aytib o'tish mumkinki, bolalar xalq cholg'ulari orkestrida repertuar tanlash, uni yangi asarlar bilan to'ldirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ijro dasturida mumtoz musiqa, zamonaviy va estrada namunalaridan asarlar kiritilishi konsertlarning muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi. Bolalarni ko'proq konsert chiqishlarini tashkillashtirish lozim va albatta konsertdan keyin har bir o'quvchi o'zlarining fikrlarini, taassurotlarini aytishiga imkon berish katta samara beradi.

Orkestr mashg'ulotlarida yaxshi natijalarga erishish uchun elektron o'quv-uslubiy komplektni qo'llash muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu tufayli orkestr mashg'ulotlari o'tkazilgan sinflarda kompyuter, printer, partiyalarni ko'paytirish uchun kseroks, audio va video kabi multimediyaga komplekti o'quvchilarning mashhur kompozitorlar asarlarini, shuningdek turli konsertlar ijrosini eshitishi o'quvchilarning yuqori ijro va saxnaviy madaniyatini oshirishiga yordam beradi.

O'zbek san'atini rivojlantirish va kelajak avlodni har tomonlama etuk insonlar qilib tarbiyalashda orkestr jamoasi faoliyatining o'rni ham o'ziga xosdir. Orkestr jamoasi avvalo o'quvchilarni jamoada o'zini tutishni, jamoa bo'lib bir maqsad yo'lida harakat qilishni o'rgatsa, notaga qarab o'qish, tovushlar uyg'unligini his etish kabi professional ko'nikmalari hosil bo'ladi. O'quvchilar asarni ijro etish orqali garmoniyani his qilish, asarni to'liq tasavvur etib, mazmunini talqin etish malakalarini egallaydilar va shu faoliyat natijasida har tomonlama rivojlanadilar.

Dirijyorlik ko'rsatmalari orkestr ijrochiligiga o'rgatishning barcha bosqichlarida qo'llanib, asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Tayyorlov bosqichida o'quv orkestri uchun dirijyorning nutqi, o'zi tomonidan musiqa cholg'usida chalib ko'rsatishi yoki ovozda kuylab, dirijyorlik qilib ko'rsatishi muhim shartlardan hisoblanadi. Dirijyor musiqa asarining g'oyasi, tuzilish xususiyati, mazmuni, obrazlari, karakterini qisqa va lo'nda nutq orqali tushuntiradi. Nutq va ko'rsatish muhim bo'lsada, u faqat orkestr bilan til topishishning yordamchi uslubidir, chunki bu ijrodan oldin bajarilishi lozim bo'lgan vazifalardir. Ijroga dirijyorlik qilish va uni boshqarish etuk professional mahoratni talab qiladi. Professional va havaskor cholg'u jamoalari dirijyorlarining faoliyati va vazifasi turlicha, ammo ularni bir maqsad birlashtiradi—dirijyorlik qilish va o'z ishini bilish, ya'ni madaniyatli sozandagina bo'lib qolmay, maxsus ma'lumotlar bilan qurollanib, ulardan samarali foydalanish. Har bir musiqa cholg'usida ijrochilik mahoratini yaxshi egallay olmagan sozanda, yordamga muhtoj bo'lib qoladi. Bu to'la ma'noda dirijyorlik mahoratiga ham tegishlidir.

U asarni yaxshi o'zlashtirish uchun muntazam mashq qilishi lozim. Konsertda esa, orkestr sozandalariga asarni ijro etishdagi barcha n'yuanlar ma'lum bo'lganligi

uchun, u oddiygina texnika, ya'ni metr va ritmlarni ko'rsatish bilan cheklanib qoladi. Yaxshi, etuk texnikaga ega bo'lgan dirijyor konsert paytida ham xuddi mashq paytidagidek tekis va jonli ijroga erishadi.

Asarlarning asta-sekin murakkablashib borishi, ijro etish malakasining o'sishi badiiy jamoaning musiqa rahbaridan jamoa ijrosini uyg'unlashtirish, uning ijro sifatini yaxshilashni o'z zimmasiga olib, jamoa ishtirokchilari e'tiborini o'ziga jalb qila olishi kerak.

MUHOKAMA

Orkestr rahbari birinchi mashg'ulotdanoq musiqa cholg'ularining yaxshi sozlanganligiga e'tibor berishi lozim. Orkestrning yaxshi sozlanishi – malakali boshqarishning birinchi alomatidir.

Orkestrning rahbari - dirijyordan talab qilinadigan ishlardan - orkestr partiturasini mukammal darajada o'zlashtirganligidir. Partituraning yaxshi o'qiy olish dirijyordan maxsus bilim va ko'nikma talab qiladi. Partituraning ongli tahlil qilish bu asosiy va ikkinchi darajali mavzuni topa olish, avj o'rni, ahamiyatini ajrata olish, temp va uning turli o'zgarishlarini belgilash, asarning shaklini aniqlash va hokazolardan iboratdir. Bundan tashqari, texnik qiyinchiliklarini aniq ko'rsatib, uni bartaraf qilish uslublarini topish. Partituraning tahlil qilish, musiqaviy obrazlar mazmunini ochish uslubi, umumiy madaniyat, maxsus tayyorlov darajasi va dirijyor ishining o'ziga xosligiga qarab turli dirijyorlarda turlichadir.

Partitura bilan tanishish va uni o'rganish uchun eng qulay cholg'u fortepiano hisoblanadi.

Yangi asar ustida ishlashda tempini o'rnatish muhim ahamiyatga ega. Har bir asar o'ziga xos tempga ega, undan ozgina chetlashish esa dirijyorning didiga bog'liq. Orkestrni birinchi marta yangi asar bilan tanishtirayotganda, uni muallif ko'rsatganiga nisbatan sekinroq templarda ijro etish kerak. Bunda asarni ijrochilar qanday qabul qilishayotgani kuzatib boriladi. So'ng, asarni tezroq ijro etib, ijrochilar uchun qulay va musiqa mazmuniga muvofiq bo'lgan tempni dirijyor aniqlaydi.

Orkestr jamoasi bilan ishlashda dirijyor talabchan, sabr – toqatli va bu jihatlar partituraning yaxshi bilishga asoslangan bo'lmog'i kerak. Jamoada muloqot shaklini topish ham muhim, xushmuomala va ayni paytda talabchan, lekin ortiqcha qattiqqo'l bo'lmaslik kerak. Sozanda – ijrochilar bilan haqiqiy ijodkorga xos ishonch asosida munosabatda bo'lish, pultda o'z hurmatini saqlash, jamoani o'z badiiy didi va talqiniga bo'ysundira olishi lozim. Bu jamoa ishida do'stona, ijodiy muhit yaratilishiga imkon beradi.

XULOSA

Zamonaviy o'qitish tizimida o'qituvchilar, xususan orkestr rahbarlari bolalar orkestri bilan ishlash uslubiyotidan tanish bo'lishi, orkestr mashg'ulotlarini samarali

va maqsadga muvofiq tarzda olib borish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.

Qiyinchiliklarni engishdagi talabchanlik, sabr-toqat, kamchiliklarni kechirmaydigan darajada mas'uliyatli bo'lish, alohida qismlar ustida puxta ishlash, avvaldan belgilangan rejadan og'ishmay borish, yuksak prinsipiiallik – bularning hammasi ijobiy natijalarga olib keladi. O'z ijrosidan qoniqqan musiqachilar dirijyorning haqqoniy qattiqqo'lligini to'g'ri tushunadilar hamda unga nisbatan ishonch va hurmat his qiladilar. Dastlabki repetisiyalarda istalgan natijaga erishilmagan taqdirda sabr-toqat, orkestr jamoasiga ishbilarmonlik bilan yondoshish, xushmuomalalik kabi fazilatlar ko'zlangan maqsadga erishishga yordam beradi. Asarning barcha o'ziga xos xususiyatlarini his qilish, anglash, dirijyor maqsadini tushunish, o'zlashtirish uchun orkestr jamoasiga ham vaqt kerak. Orkestr jamoasi bilan olib borilayotgan ish jarayoni qiziqarli bo'lishi, dirijyor orkestr sozandalarida mashq qilishga ishtiyoq uyg'ota olishi va ular asarni o'zlashtirishdan qoniqish hosil qilishlarini ta'minlash lozim. Repetisiyalar vaqtida orkestr jamoasida intizom katta ahamiyatga ega. Yuqoridagi vazifalar amalga oshirilgandagina orkestr jamoasi ijobiy natijalarga erishishiga imkoniyat tug'iladi. Buni har bir yosh dirijyor yodda saqlashi, unga amal qilishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, San'at ya'ni musiqa olamining yutuqlarida o'sib kelayotgan yoshlarning ta'lim va tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Orkestr dirijyorligining o'ziga xos ta'lim va tarbiyaviy ko'plab jihatlariga e'tibor berib, undan o'rinda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Doimo barcha jabhalarda rivojlanishlar bo'lishini xohlar ekanmiz yoshlar ta'lim-tarbiyasiga muntazam ravishda e'tiborli bo'lish ayni muddaodir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Islom Karimov “Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch”. T. “Ma'naviyat”, 2008 yil 79 – bet.
2. Mirziyoev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalkimiz bilan birga kuramiz”- O'zbekiston, Toshkent 2017 yil
3. Sodiqova T. “Ma'naviyat – millat beshigi” T., “O'qituvchi” nashriyoti, 2007 yil.
4. Sh.Umarov “Dirijorlik” Toshkent Tamaddun 2019 yil
5. F. Abduraximova “Jamo'ia ijrochiligi” Toshkent 2019 yil
6. Ortiqov. T. “Musiqqa o'qitish metodikasi” T., “Muharrir” nashriyoti, 2010 yil.
7. D. Karimova “Musiqiy pedagogik mahorat asoslari” T., “Iqtisod-moliya” 2008.
8. M. Jumaniyozova. “Ilg'or pedagogik texnologiyalar va ularni amalda qo'llash” ma'ruza matnlari. T., 2010.